

MAHATMA GANDI HAYOTI VA FAOLIYATIGA NAZAR

FarDU akademik litseyi tarix fani o'qituvchisi

D. Paxriddinova

Annotatsiya: *Mazkur maqolada buyuk davlat arbobi Mahatma Gandhi shaxsiyati uchun xos bo'lgan jihatlari, jahon tarixchilarining u haqida bildirilgan fikrlari bayon qilingan.*

Abstract: *This article describes the characteristics of Mahatma Gandhi's personality, the opinions of world historians about him.*

Kalit so'zlar: *mustamlakachilik zulmi, Mo'handas Karamchand Gandhi, Satyagrah.*

Keywords: *colonial oppression, Mohandas Karamchand Gandhi, Satyagrah.*

Gandi o'zining nazariy tushunchalarida noaniqlik va aniqlik yo'qligini tan olgan va bunda haqiqatni mistik izlanishlar bilan izohlab xudo irodasiga to'liq bo'ysinishni talab qiladi, bu umumiy olganda uning dunyoqarashidagi barcha harakatlarning asosiy sababidir. 1933- yilda Gandi shunday deb takidlagan:

“Mening yozganlarimni diqqat bilan o'qiyotganlarga va ularga qiziqqan har bir kishiga menga muttasil ko'rinadigan narsaga ahamiyat bermasliklarini ko'rsatmoqda. Haqiqatni qidirishda men ko'plab g'oyalarni rad etdim va juda ko'p narsalarni bilib oldim. Men faqat haqiqat chaqirig'iga itoat etishga tayyorligim haqida qayg'uraman xudoyim va shuning uchun kimdir mening yozuvlarim orasida nomuvofiqlikni topsa tog'ri bo'ladi.” Binobarin, Hindiston mustaqilligi uchun ijtimoiy -siyosiy kurash Gandining falsafiy pand – nasihatlarini milliy va ijtimoiy g'oya bilan bevosita bog'liqdir .

Mahatma Gandining hikmatli gaplaridan misollar keltirib o'taman .

- Agar so'zlaring bilan amaling bir bo'lsa, barcha atrofingdagilar seni hurmat qila boshlaydi.

- Dunyodagi qanday o'zgarishni istasang, o'zingni shunday o'zgartir.

- Ertaga o'lishing mumkindek yasha, bir umr yashashing mumkindek , o'qib -o'rgan .

- “Qonga qon, jonga jon” shioriga amal qilish orqali butun dunyoni qonga botirish mumkin holos.

- Jonimni berishim uchun ko'plab sabablar topiladi. Lekin bironing jonini olishim uchun hech qanday sabab topilmaydi .

- Kuch ishlatishsiz kurashish – kuchlilarning qurolidir .

- Baxt – bu fikrlarning, gap so'zlaring va amallaringning muvozanatidir .

- Zaiflar hech qachon kechira olmaydi. Kechira bilish qobiliyati kuchlilargagina xos.

- Qayerda muhabbat bo'lsa, u yerda hayot bor.

- Gunohkorni sev, gunohning o'zidan nafratlan .

- Insoniyat okeanga o'xshaydi. Okeandagi bir necha tomchilar kir bo'lgani bilan , butun boshli okeanning o'zi kir bo'lib qolmaydi.

- Millatning buyukligi va uning axloq tomonlama rivoj topganligi ushbu millatning hayvonlarga bo'lgan munosabatiga ko'ra belgilanadi.³²

Hindiston xalqi millati tiliga qarab juda ko'p guruhlarga bo'lingan hamda turli diniy oqimlar mavjud bo'lgan qurolsiz xalq edi. Ana shu xalqning Angliyaning bosqinchilik harakatiga qarshi kurashgan fidokor insoni ,yani hind xalqining dohiysi edi. Mahatma Gandi Hindistondagi turli sinflarning bosqinchilarga qarshi kurashiga rahbarlik va yetakchilik qiladi.

“Gandi o'z vatanining milliy ozodlik uchungina emas, balki Hindiston xalqini ozodlikka olib chiqishga va ularning huquqlarini o'rnatishga harakat qiladi. Hindlar uni „Mahatma“ (buyuk qalb) deyishadi. Gandi xalqini sevgan haqiqatparvar chinakam fidoyi insoni edi. U hamisha „Men Hindistonning oddiy bir xizmatkoriman – Men nafaqat hind xalqiga balki butun insoniyatga xizmat qilyapman“ der edi. Gandining dunyo qarashi dinga asoslangan edi. Uning dinga chuqur e'tiqod qilganligi uning tashqi qiyofasida ham, ibodat qilishida ham, nomoz o'qishida, ro'za tutishida butun dunyo qarashining ichki mohiyatida o'z ifodasini topgan.”³³

“Janubiy Afrikada bo'lgan chog'ida Mahatma Gandi turli sabablar bilan Hindistonga bir necha marta borib kelgandi. Har borganda hammaslamlari bilan u yerdagi ozodlik kurashiga o'z hissasini qo'shardi. Bir gal Hindistonga borib kelganida Pretoriya(Janubiy Afrika Respublikasidagi shahar)dagi oq tanli mustabidlar uni yomon kutib oladilar. Avvaliga “isqirt” mamlakatdan vabo yuqtirib kelgan deb gumonsirab, hindlar suzib kelgan kemani 23 kun bandargohda tutib turadilar. Yo'lovchilarning tushishiga ruxsat tekkach, Gandini bir to'da oq tanli olamon o'rtaga olib toshbo'ron qiladi. Pretoriya polisiya mahkamasi boshlig'ining muovini (u Gandini hurmat qilar, xotini ham Gandi oilasi bilan bordi keldi qilardi) kelib qolib, uni o'limdan qutqarib qoladi . Mahalliy qonunga ko'ra siz tajovuzkor olomonni sudga berib , haqqingizni undirib olishingiz mumkin, bir tomondan ancha-muncha pulli bo'lib qolasiz, qolaversa bundan keyin joningiz xatardan xoli bo'ladi”-,deb Gandiga maslahat beradi. Gandi bunga e'tiroz bildirib “Qo'ying agar olomon ustidan shikoyat qilsam, bu mening ojizligimni, ularning haqligini bildiradi. Bir muncha fursat o'tib ularning aqli kiradi, qilgan ishlaridan pushaymon bo'lishida va mening tarafdorimga aylanishadi” deydi. Darhaqiqat oradan bir yarim hafta o'tib polisiya boshlig'ining muovini bir gala mahalliy oq tanli kishilar Gandidan kechirim so'ragani mahkamaga kelishgani haqida xabar keltiradi.

Hindiston mustaqillikka erishgan ingliz hukumati milliy ozodlik kurashining otashqalb nomoyondasi Mahatma Gandidan Angliyaga tashrif buyurishni iltimos qiladi. Hindistonni asriy mustamlakachilik asoratidan xalos qilgan buyuk rahnomoning qiyofasini o'zlaricha tasavvur qilgan minglab ingliz fuqorolari uni qarshi olgani temir yo'l vokzaliga keladilar. Vagondan sochi olingan , boshyalang , egnida oq matoni o'rab olgan, oyog'iga shippak ilib, qo'lida aso tutgan mushtekkina, ozg'in chol tushganini ko'rib, hamma dong qotib qoladi .

“Shuncha yo'ldan Angliyadek mamalakatga kelar ekansiz, sal durustroq kiyinib olsangiz bo'lmasmidi” degan savolga Gandi “Men ona Hindistonimning jonli timsoliman, sizlar ikki yuz

³² <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/mahatma-gandi-hikmatlari.html>

³³ Mamlakat Qodirova „ Mahatma Gandi “ 2022

yildan beri talayverib, diyorimni shu holga soldingiz” - deb javob beradi . Hindu diniga ko’ra, Gandi oliy yaratuvchi – Brahma darajasiga yetishish yo’lida „mahatma“ rutbasiga yetib borgan, shuning uchun ham unga „Mahatma“ taxallusi berilgan . Uning ma’nosi arshi aloga ko’tarilgan ruhni anglatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Mamlakat Qodirova „ Mahatma Gandi “- 2022
2. <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/mahatma-gandi-hikmatlari.html> Raghavan N. Iyer, “
3. Gandhi’s View of Human Nature” in S. Mukhejee & S. Ramaswamy, Facets of Mahatma Gandhi-4, Ethics, Religion and Culture, (New Delhi: Deep & Deep Publications,1998) p.8
4. 17. Sorokin, P.A., The Social and Cultural Dynamics,London,Peter Owen, 1957, P.625./// //Nirupama Bhattacharyya//dessert// Gandhi’s concept of individual and society// Thesis submitted to Gauhati University for the award of the Degree of Doctor of Philosophy (Arts) D ate: 08/05/2006 p 107